



GULLI O'SIMLIKLARDAGI ANDROSEYNING UMUMIY TUZILISHI VA TASNIFI

Ne'matova Mushtariy Qodirjon Qizi

AndPI, Aniq va tabiiy fanlarni fakulteti, biologiya yo'nalishi 1-bosqich

talabsi.mushtariynematova26gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8129182>

Annotatsiya: Ushbu tezisda gulli o'simliklardagi androseyning tuzilishi, tavsifi, turlari haqida malumot berilgan.

Annotation: This thesis provides information on the structure, description, and types of androecium in flowering plants.

Аннотация: В диссертации представлены сведения о строении, описании типах андроцея у цветковых растени

Kalit so'zlar: changchi, oligomer, polimer, gulliy o'simliklar, androsey.
Key words: pollinator, oligomer, polymer, flowering plants, androceum.

Ключевые слова: опылитель, олигомер, полимер, цветковые растения, андроцеум.

Bu olam 4 ta dunyoni birlashidan tashkil topgan bo'lib ular bakteriyalar dunyosi, zamburuglar dunyosi, o'simliklar dunyosi hamda hayvonlar dunyosidir. Bularning ichida eng keng tarqalgani o'simliklar dunyosi hisoblanadi. O'simliklar dunyosi ikkiga yuksak va tuban o'simliklarga bo'linadi. Yuksak o'simliklar gulliy o'simliklar ham deb ataladi. Chunki gulliy o'simliklar tubanidan farq qilib o'z hayotida gullab meva beradi. Gullarni xosil bo'lishi va ulardan mevani pishib yetilishi uchun changchi va urugchi ahamiyati katta xisoblanadi.

Bitta guldagi changchilar soni adroseyni tashkil etadi. Guldagi changchilarning miqdori har xil bo'lib ular sodda o'simliklarda spirallik, rivojlangan o'simliklarda halqa shaklida joylashadi. Arxideyadoshlar oilasida 1-3, sabsar gulda -3, murakkab doshlarda-5, piyozdoshlarda-6, kapalakdoshlarda-10. Bunday androsey **oligomer** androsey deb ataladi . Bazi o'simliklarda changchilar soni judaham ko'p . Gulda andoseylar soni ko'p bo'lsa **polimer** deb ataladi androseyning evolutsiyasi polimerdan oligomerga borgan .

Ko'pincha changchilar iplarining uzun va kaltaligi bilan ham farqlanadi . Masalan butguldoshlarda-2 qisqa va 4 uzun labguldoshlarda-2 uzun va 2 qisqa bandli changchilar bo'ladi . Bazi oilalarda changchi bandlari tutashgan . Tropik o'simlik MELICCAEE oilasining vakilari da 10 changchi bir-biri bilan, tutashib, chang naychakarni hosil qiladi . Kapalakdoshlarda 9 changchi tutashadi . Bittasi esa ozod holda qoladi . Talaygina o'simliklarda changchi ip bandi bilan changdonlar qo'shilip ketadi . O'z davrida K .Linney changchidonlarning turli tuman bo'lishiga asoslanib o'zining suniy sistemasini tuzishga muyassar bo'ldi .





Xar bir changchi , changchi ipi va changdondan iborat . Changchi ipi bazan judaham uzun bo'lib , gul qo'rg'ondan chiqib turadi, ayrim hollarda ingichka qisqa yoki mutlaqo taraqqiy etmaydi. Ular yumaloq , ipsimon, yassi yoki keng tukchalar bilan qoplangan. Yopiq urug'li o'simliklarning aksariyatida changchilar, ularning katta kichikligidan qatti nazar, faqat bitta o'tqazuvchi bog'lamga ega . Changchilar shu bog'lab bilan oziqlanadi .

Changdonning ikkita uyasi yoki honasi boshlang'ich ip bilan tutashgan. Ularning har bir yarim bo'lagi teka deb ataladigan to'siq bilan chang xonasiga bo'linadi, keyinchalik bu xonalarda mikrosporalar yoki changchilar rivojlanadi .

Changdondan chag yetilgandan so'ng, uning uyasi yoki honasidagi subepidermis xujayrasining yorilishi tufayli ochiladi . Ochilgan changdon yorug'i gulning ichki tomoniga qarasa introrz changdon , tashqi tomonga qarasa ekstrorz changdon deb ataladi .


Talaygina o'simliklarda changchilar gulning boshqa qismlari bilan qo'shilib ketadi . Masalan , orxiguldoshlarda changchilar ginetsey ustunchasi bilan birikadi, boshqa o'simliklarda changchi iplarining pastki qismi gultojsa yoki gulqo'rg'on bilan qo'shiladi .

Ba'zi o'simliklarda changchilar chang xosil qilish xususiyatini yo'qotib bargsimon yoki nektar xoliga aylanib qolgan. Bunday nasilsiz changchilar staminodiy deb ataladi.

Changchilarning asosiy vazifasi changlanish uchun zarur changlarni hosil qilishdi. Lekin bazi o'simliklarda rangli changdonlar borki, ular xashoratlarni gulga jalb qiladi , masalan ; akasiyalar , mimozalar , evkalipitlar .

Changchilarning kelip chiqishi va evolutsiyasi . Ko'pchilik olimlarning fikricha , xozirgi yopiq urug'li o'simliklarning changchilari , ochiq urug'li sodda ajdodlari mikrosporofillarining reduksiyalanishidan yuzaga kelgan . Demak eng qadimgi o'simliklar changchilarining shakli barchaga o'xshash yassi bo'lishi kerak. Keyingi vaqtda xuddi shunday shakil tuzulishiga ega bo'lgan o'simliklar ko'p mevalilar oilasida topilgan .

1942-yilda Fadji orolidan Degeneria vitiensis degan o'simlik qazilma xolida topilgan . Bu daraxtsimon o'simlikning gulidagi androseylar soni 30-40 ta bolgan . Ular yassi va keng changchilardan iborat bo'lib , changchilarning o'rtasidan uchta o'tkazuvchi bog'lam o'tgan . Changchilarning ostida bir juft sporangiy joylashgan. Ularda changchi va chang ipi, changdon bog'lovchi iplar takomilashmagan. Evolutsiyaning keyingi bosqichida yassi chngchilar ixtisoslashib chang ipi, boshang'ich va changdonga aylangan. Xozirgi yopiq urug'li o'simliklarning kopchiligi changdonning ikkala yarmi bir biriga qoshilib






to'rtxonali changdonga aylangan va changchilarning uchida apeksiya joylashgan. Sodda oilalar changchilar spiral shaklida boladi. Ko'pchilik yopiq urug'li o'simliklarda changchilarning soni ma'lum miqdor bo'lib ,siklik tarzda joylashadi.

Guldagi changchilar majmuosi androsey deb ataladi. Ularning soni bittadan bir nechaga bo'ladi, lekin aksariyat gullarda nisbatan kam bo'ladi. Changchilarning xilma xilligi Lenneyga bo'g'liq uning mashhur sistemasini tuzishga asos solgan. Changchilar changchi ipidan va changdondan tuzilgan. Changdon ikkita yarimtaga ega, ular bir biridan changchi ipi davomida bo'lmish bo'g'lovchi bilan ajralib turadi, changdan ingliz har biri yarimtasi ikkita chang uyasiga ega bo'ladi u yerda mikrospo'plari hosil bo'ladi, keyin ular changga aylanadi. Ko'pchilik olimlarning fikricha changchilar qandaydir ochiq urug'li ajdodlarida mikrosporofillaridan ularning reduksiyalanishi natijasida yuzaga keladi. Demak bargga o'xshash changchilar pirimitov bo'ladi. Bu changchilar endi avvalo ko'p mevalilar ichida masalan Degeneria vitemisr - magnoliyadoshlar qabilasidagi Degeneriya doshlar oilasining yakka-yu yagona vakilidan uchradi. Uning gulidagi andrasey 30-40 ta endlikda yassi barg simon changchilardan iborat bo'lib ularning pastki yarimtasi ikki juftdan bir biriga yaqin joylashgan mikrospo'ranggilar mavjud.

Ular hali chang ipi, changdon va bolovchiga ajralmagan. Changchilar bilan genetsey orasida reduksiyalangan changdoni sitamodiylar joylashgan. Gulning keyingi evalutsiyasi lentasimon changchilar bir muncha mutaxasislashgan changchi ipiga bog'lovchiga va changdondan ajralgan. Pirimitiv oilar changchilari soni noaniq va sipral jaoylashgan lekin ko'pchilik yopiq urug'li changchilarda siklik joylashadi va aniq bo'ladi.

Ba'zi progressiv o'simliklarda masalan ko'p mevalilarning ilg'or oilasida zirkdoshlarning bog'lovchisi davomida changdondan yuqoriga chiqib turadi. Aksariyat progress o'simliklarda changdan yarimtasi qo'shib bitta to'rt xonali changdoni hosil qilgan. Bu changdan uchining reduksiyalanishi natijasida changchilarning tepasida bo'lib qoladi. Shunday qilib ichki chandon – ikkilamchi hodisadir. Pirimitov oilarda changchilar sipral joylashadi. Bazida ularning soni juda ko'p bo'ladi ammo ko'pchilik yopiq urug'lilarda changchilar siklik joylashadi va ma'lum bo'ldi.

Keyingi izlanishlarimda eng keng tarqalgan gulli o'simliklarni sistematikasi inson hayotidagi ahamiyati tabiatdagi ro'li haqida ilmiy ish olib boraman. Hamda "Qizil Kitob" ga kiritilgan gulliy o'simliklarni nega kiritilgani sabablarini ham alohida tezis qilib chiqaraman.





Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlari:

1. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi. -T.: «Fan va texnologiya» 2018 201-bet.
2. Mahmudov V. Botanika. -Toshkent: Ta'lim nashriyoti 2010 128-bet.

